

SERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Monografiyada servis sohasi iqtisodiyotini klaster usulida barqaror rivojlantirish, turizm industriyasini boshqarishning nazariy tushunchalari, restoranlar – ovqatlanish xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar sifatida, servis sohasini rivojlantirishning tadbirkorlik modeli, qishloq turizmining xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari, mintaqa barqarorligini ta'minlashda turistik hududlarning roli kabi masalalar yoritilgan. Ushbu monografiya xizmatlar ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavriat va magistratura talabalari, xizmat ko'rsatish sohasi muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan doktorant va mustaqil izlanuvchilar hamda servis sohasi amaliyotchilariga tavsiya etiladi.

Mualliflar jamoasi: Navruz-Zoda B.N., Maydirova A.B., Berdibekova A., Ziyavitdinov H.H., Zayavitdinova N.M., Xodjayeva D.X., Navro'z-zoda L.B., Rajabova M.A., Saidova F.K., Sharifova Sh. Sh., Djabbarov I.G., Nigina F., M.Sh.Baltayeva, Jo'rayeva Z.T., Tadjiyeva S. U.

Monografiya Buxoro davlat universitetining xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti kafedrasida qoshidagi mualliflar jamoasi tomonidan iqtisod fanlari doktori N.S.Ibragimov bosh muharrirligida yozilgan. O'zbekiston Respublikasi.



Globe
EDIT

Jamoaviy monografiya

N.S. Ibragimov

Globe
EDIT



N.S. Ibragimov

SERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

NAZARIYA, METODOLOGIYA, AMALIYOT
(Jamoaviy monografiya)

N.S. Ibragimov

**SERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR
YO'NALISHLARI**

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

N.S. Ibragimov

SERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**NAZARIYA, METODOLOGIYA,
AMALIYOT (Jamoaviy monografiya)**

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L
Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-3-330-71364-2

Copyright © N.S. Ibragimov

Copyright © 2022 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the
OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O՛RTA MAXSUS
TA՛LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SERVIS SOHASI IQTISODIYOTI KAFEDRASI**

**ВЫСШЕЕ И СРЕДНЕЕ СПЕЦИАЛЬНОЕ МИНИСТЕРСТВО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
КАФЕДРА ЭКОНОМИКА СФЕРЫ УСЛУГ**

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**SERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR
YO՛NALISHLARI: NAZARIYA, METODOLOGIYA, AMALIYOT**

Жамoaviy monografiya

**ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ
УСЛУГ: ТЕОРИЯ, МЕТОДОЛОГИЯ, ПРАКТИКА**

Коллективная монография

**PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF THE
SERVICE SECTOR: THEORY, METHODOLOGY, PRACTICE**

Collective monograph

2022

Servis sohasini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari: nazariya, metodologiya, amaliyot. **Jamoaviy monografiya, i.f.d., N.S.Ibragimov umumiy tahriri ostida**

Приоритетные направления развития сферы услуг: теория, методология, практика. **Коллективная монография под общей редакцией д.э.н., Н.С.Ибрагимов**

Mualliflar jamoasi: Navruz-Zoda B.N., Maydirova A.B., Berdibekova A., Ziyavitdinov H.H., Zayavitdinova N.M., Xodjayeva D.X., Navroʻz-zoda L.B., Rajabova M.A., Saidova F.K., Sharifova Sh. Sh., Djabbarov I.G., Nigina F., M.Sh.Baltayeva, Joʻrayeva Z.T., Tadjiyeva S. U.

Авторский коллектив: Навруз-Зода Б.Н., Майдырова А.Б., БердIBEKOBA A., ЗиявITДИНОВ Х.Х., ЗаявITДИНОВА Н.М., Ходжаева Д.Х., Навруз-зода Л.Б., Раджабова М.А., Саидова Ф.К., Шарифова Ш. Ш., Джаббаров И.Г., Фузайлова Н., Балтаева М.Ш., Жураева З.Т., Таджиева С.У.

Jamoaviy monografiya Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va chop etishga tavsiya etilgan (2022 yil 30-mart, № 2/7).

Коллективная монография обсуждена на Ученом совете Бухарского государственного университета и рекомендована к печати (2022 год 30 марта, № 2/7)

soliqga oid qonunchiligini yanada takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va yangi moliyaviy mexanizmlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, servis sohasini jadal rivojlantirishda mehnatga layoqatli aholining tashabbuskorlik, tavakkalchilik, menejerlik, yangilikka moyillik va bozorshunoslik kabi tadbirkorlik fazilatlarini o'qitish hamda ustoz-shogird munosabatlari asosida shakllantirilgan holda ularni biznesni yuritishning o'zini o'zi bandlik, yakka tartibda tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish korxonalarida tadbirkorlik faoliyati hamda mazkur sohada innovatsion va investitsion faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun tegishli chora-tadbirlarni ko'rish lozim.

MINTAQA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TURISTIK HUDUDLARNING ROLI

**Buxoro davlat universiteti
“Servis sohasi iqtisodiyoti” kafedrasini
o'qituvchilari M.A. Rajabova va F.K.Saidova**

Annotasiya. Ushbu maqolada turistik resurlar, Buxoro viloyatining turistik salohiyati, Buxoro viloyatida turizm sohasini tashkil etish va rivojlantirish uchun amalga oshirilgan va amalga oshirilishi kutilayotgan natijalari hamda kelgusidagi rejalashtirilgan ishlari haqidagi hisobot ma'lumotlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Turistik resurs, sayyohlik resurslari, “ochiqlik siyosati”, Buxoro viloyatidagi joylashtirish vositalari, Buxoro viloyatining turizm salohiyati, turizm biznesi, Buxoroda o'zlashtirilgan yangi turizm yo'nalishlari.

“Har bir mamlakatda turistlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xos, ba'zida o'ziga xos turistik resurslar mavjud. Ular iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, u yoki bu mamlakatni sayyohlar uchun ozmi -ko'pmi jozibador qilib, turistik ijara haqining asosini tashkil qiladi. Shunday qilib, Evropada Italiya, Fransiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Gretsiya,

Shveysariya ko'p yillar davomida har yili qabul qilinadigan sayyohlar soni bo'yicha etakchi bo'lgan sayyohlik resurslari bo'yicha eng boy davlatlar hisoblanadi. Biroq, bu mamlakatlarda sayyohlik resurslarining asosiy qismi kelayotgan sayyohlarning asosiy oqimi to'plangan alohida shahar va aholi punktlarida to'plangan. Bu shahar va shaharlar odatda sayyohlik markazlari deb ataladi”.⁵³

Mamlakatimizning “ochiqlik siyosati”ni amalga oshirish natijasida xorijiy davlatlar fuqarolari uchun O'zbekistonga vizasiz kirish bo'yicha mamlakatlar soni 9 tadan 90 taga ko'paytirildi. O'tgan yilda Buxoro viloyati turizm sohasi rivojlanishi uchun ulkan islohotlar olib borildi. Xorijiy va mahalliy turistlarga xizmat ko'rsatish uchun 2017 yilda jami 114 ta joylashtirish vositalari bo'lgan.

Buxoro viloyatidagi joylashtirish vositalari (2021 yil holatiga)

Joylashtirish vositalari	Soni	Xona soni	O'rinlar soni
Mehmonxona va joylashtirish vositalari	408	4252	9879
Mehmonxona	160	3130	6586
Oilaviy mehmon uylari	198	685	1866
Xostellar	50	437	1427

Mamlakatimiz boy madaniy, tarixiy, turistik, tabiiy resurslarga boy bo'lishiga qaramay ulardan unumli foydalana olmayapti. Shu jumladan Buxoro viloyatining iqtisodiy geografik o'ri shuni ko'rsatadiki, shaharda yashab o'tgan avliyo anbiyolarning dovruḡ'i Makkai Madinadan keyingi o'rinida turadi. Bu esa o'z musulmon davlatlaridan tashrif buyuradigan sayyohlar soniga ta'sir ko'rsatadi. Lekin viloyatdagi turizm infrastrukturasi qulay emasligi sayyohlarga bir qancha noqulayliklar tug'diradi.

Buxoro viloyatining turizm salohiyati

- 121 ta turistik firmalar;

⁵³ <https://btet.ru/uz/road-trip/turisticheskaya-zona-turistskie-zony-i-raiony-zachem-nuzhny-zony/>

- 211 ta hamroh tarjimonlar.

Hozirgi kunda Buxoro viloyati bir kunda 6 mingga yaqin mehmonlarga xizmat ko'rsatish imkoniyati mavjud. 829 ga yaqin tarixiy-me'moriy obidalar mavjud bo'lib, davlat muhofazasiga olingan.

118 ta tarixiy obidalar YuNESK Oning Butunjaxon madaniy meros ob'ektlari ro'yxatiga kiritilgan.

- 367 ta mehmonxonalar;
- 76 dan ortiq milliy va xorijiy restoranlar;

Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar dinamikasining tahlili⁵⁴

Yillar	2018 yil		2019 yil		2020 yil		2019 yilga nisbatan o'zgarishi, % da
	kishi	%	Kishi	%	Kishi	%	
Mahalliy sayyohlar	1 864 026	92,5	2 671 645	93,4	572 910	98,1	21,44
Xorijiy sayyohlar	150 623	7,5	182 715	6,6	10 933	1,9	5,98
Jami sayyohlar	2 014 649	100	2 854 360	100	583 843	100	20,45

Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar dinamikasining uch yil davomidagi o'zgarishini tahlil qilganimizda quyidagilar xulosalarga keldik. 2018 yil holatiga ko'ra viloyatga tashrif buyurgan mahalliy sayyohlar soni 1864026 kishini, jami sayyohlardagi ulushi esa 92,5 % ga teng bo'lgan. Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar esa 150623 kishini, jami sayyohlardagi ulushi esa 7,5 % ga teng bo'lgan. Natijada jami 2018 yilda 2014649 ta sayyohlar tashrif buyurgan.

⁵⁴ "Tourist Police Bukhara" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

2019 yil ma'lumotiga ko'ra, viloyatga tashrif buyurgan mahalliy sayyohlar soni 2 671 645 kishini, jami sayyohlardagi ulushi esa 93,4 % ga teng bo'lgan. Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar esa 182 715 kishini, jami sayyohlardagi ulushi esa 6,6 % ga teng bo'lgan. Natijada jami 2019 yilda 2 854 360 ta sayyohlar tashrif buyurgan.

2020 yil mamlakatimizda pandemiya epidemiyasi tufayli sayyohlar oqimi ancha kamaydi. Buni quyidagi raqamlarda ham ko'rish mumkin.

2020 yil ma'lumotiga ko'ra, viloyatga tashrif buyurgan mahalliy sayyohlar soni 572 910 kishini, jami sayyohlardagi ulushi esa 1,9% ga teng bo'lgan. Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar esa 10 933 kishini, jami sayyohlardagi ulushi esa 1,9 % ga teng bo'lgan. Natijada jami 2020 yilda 583 843 ta sayyohlar tashrif buyurgan.

Natijada mahalliy sayyohlar soni 2020 yilga kelib, 2019 yilga nisbatan 78,56% ga, xorijiy sayyohlar esa 94,02%ga kamaygan. Yuqoridagi ko'rsatkichlardan shu ma'lum bo'ldiki, 2020 yilga kelib, 2019 yilga nisbatan viloyatga tashrif buyurgan jami sayyohlar soni 79,55% ga kamaygan.

2012 yilda jami 1269 ming nafar sayyohlar tashrifi buyurgan bo'lsa, 2019 yilda jami 3603,0 ming nafar, shundan, 603 ming xorijiy va 3 000,0 ming nafar mahalliy sayyohlar tashrifi amalga oshirildi. Sayyohlar sonini 2017 yilga nisbatan qarayib 2,8 baravarga ko'payishiga erishildi.

2017 yilda 41 ta turoperatorlar faoliyat yutitgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 121 taga, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi gid-ekskursovodlar soni 232 taga, sayyohlar tashrif buyuruvchi restoranlar soni 89 taga, mahalliy va xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi avtobus va mikroavtobuslar soni 281 tani, turizm yo'l ko'rsatkichlari soni 128 tani tashkil etdi. Yangi turizm mashrutlarini tashkil etish maqsadida Romitan tumanida "Bukhara Desert Oasis \$ Spa" innovatsion turizm klasteri va To'dako'l suv ombori negizida

15 ga yermaydonida “Silk Road Ressorrt \$ Spa” zamonaviy plyaj va cho‘milish havzasi tashkil etildi.

Xitoyning Sian’ provinsiyasida Evroosiyo iqtisodiy forumi doirasida Buxoro viloyatidagi Poyi Kalon majmuasi “Shanxay hamkorlik tashkilotlari davlatlarining sakkizinchi mo’jizasi” deb e’tirof etildi.

Buxoro viloyatida ziyorat turizm yo’nalishida bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan Muxtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan 2019 yilning 21-23 fevral kunlari Buxoro shahrida I-xalqaro “Ziyorat turizm” forumi o’tkazildi.

Mazkur tadbirda dunyoning 34 ta davlatidan islom dunyosidagi nufuzli xalqaro tashkilotlar, sayyohlik uyushmalari, ziyorat turizmi sohasi kompaniyalari vakillari va din ulamalaridan iborat jami 130 dan ortiq mehmonlar tashrif buyurishdi.

Forum tadbirlari dunyoning 14 mamlakatidan kelgan 20 dan ortiq 10 ga yaqin mahalliy OAB lari orqali keng yoritildi. Tadbir yakunida “O’zbekistonni ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida e’tirof etish to’g’risidagi “Buxoro deklaratsiyasi” qabul qilindi.

Pandemiya sharoitiga qaramasdan turizm biznesi bo’yicha davlatimiz tomonidan yaratib berilgan imtiyoz, qulayliklar tufayli, 2021-yilning o’tgan davri mobaynida 78 ta yangi katta-kichik mehmonxonalar (724 ta xona, 1919 ta o‘rin) ishga tushishi hisobiga ularning umumiy soni 415 taga (4463 ta xona, 10323 ta o‘rin) yetdi.

Bunda, yirik mehmonxonalar 163 taga (3320 ta xona, 6974 ta o‘rin), oilaviy mehmon uylari 197 taga (682 ta xona, 1837 ta o‘rin), hostellar 52 taga (429 ta xona, 1456 ta o‘rin) va motellar 1 (29 ta xona, 51 ta o‘rin) taga yetkazildi.

Shu kabi turoperatorlar (121 ta (2 ta yangi), gid-ekskursovodlar (252 ta (41 nafar yangi), sayyohlar uchun restoranlar (90 tani (3 ta yangi), turistik avtobus va mikroavtobuslar (281 ta), turizm yo‘l ko‘rsatkichlari (128 tani (5 ta yangi)ni, turizm axborot markazlari 26 ta (5 ta yangi) ham sezilarli darajada ko‘paymoqda.

2021 yilda Buxoroga kelgan sayyohlar soni 2,2 mln nafarga yetib, bunda, xorijiy turistlar soni 48,9 ming nafardan oshgani kuzatildi. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan ichki turizmga qariyb 8 baravarga, xorijiy sayohlar soniga nisbatan 3,5 baravarga ortdi.

Ma'lumot uchun, viloyatdagi 30 ta (Buxoro shahridan 25 ta) tadbirkorlik subyektlariga berilgan 79,4 mlrd so'm kredit mablag'larining 18,6 mlrd so'mi to'lov muddati PF-6002 Farmonga asosan, 6 oydan 2 yilgacha prolongatsiya qilindi.

78 ta tadbirkorliklarga 1,2 mlrd.so'mlik soliq imtiyozlari berildi, 27 ta tadbirkorga (shundan: 3 ta turoperatorga 41 mln so'mlik 24 ta mehmonxonaga 1 mlrd 604 mln so'm) 1,6 mlrd.so'mlik ssudalar ajratildi, yangi turizm yo'nalishlarini o'zlashtirish va amaliyotda joriy etish maqsadida 2 ta sayyohlik tashkilotlari va 5 ta gid-ekskursovodlarga jami 35 mln.so'm grantlar ajratildi).

Xorijiy aviakompaniyalar bilan olib borilgan muzokaralar natijasida, Buxoro xalqaro aeroportiga mahalliy va to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlardan tashqari Rossiya, Yevropa, Turkiya, Qozog'iston kabi mamlakatlardan jami 871 ta charter reyslari amalga oshirildi.⁵⁵

Tahlillarimiz bo'yicha, turizm xizmatlari hisobiga viloyat iqtisodiga jami 478,9 mlrd. so'm (shundan xorijiy sayyohlardan 79,9 mlrd. so'm) tushum jalb qilindi.

Bu raqam 2020-yilga nisbatan 4,5 baravarga oshib, turizm tarmog'ida 500 nafarga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi.

Islom hamkorlik tashkilotining navbatdagi yig'ilishida 2020 yilda "Buxoro-Islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qilindi.

Bundan tashqari, Yetti pir ziyoratgohlariga keng ko'lamli qurilish-obodonlashtirish ishlari olib borildi, ularga tutash hududlarda 5 ta zamonaviy mehmonxonalar, savdo komplekslari, turizm axborot markazlari qurib foydalanishga topshirildi. Ularga olib boruvchi yo'llar qayta ta'mirlandi.

Shu bilan birga, "Devel Eco Group" MChJ tomonidan Indoneziyaning "Sahid Zarafshon" mehmonxona brendi ostida 4

⁵⁵ <https://telegra.ph/Sarhisob-2021yilda-Buxoro-viloyatining-turizm-biznesi-korsatkichlari-01-04>

yulduzli toifaga ega hamda “Hotel Orient Star” MChJ tomonidan 410 o‘rinli “Orient Star Varaxsha” mehmonxonasi foydalanishga topshirildi.

Buxoro miniatyurasini rivojlantirish maqsadida usta Toshev Davron hunarmand tomonidan joriy yilning may oyida “Buxoro ipak qog‘ozi” hunarmandchilik markazi qurib bitkazilib foydalanishga topshirildi.

O‘zbekistonda Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5048-sonli qaror doirasida turizm obyektlarida yondosh infratuzilma obyektlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va modernizatsiyalash bo‘yicha jami 52 ta (shundan: 7 ta madaniy meros obyektlari, 11 ta turizm va yondosh infratuzilma obyektlari, 21 ta yo‘l infratuzilmasi, 12 ta muhandis va kommunikatsiyalar, 1 ta boshqa tadbirlar) obyektlarda 123,1 mlrd.so‘mlik manzilli dastur ishlab chiqildi.

Buxoroda sayyohlar uchun muntazam ravishda yangi yo‘nalishdagi madaniy va ko‘ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish maqsadida har yili o‘tkaziladigan “Navro‘z” bayrami, “Nasriddin afandi”, “Sharq taomlari”, “Ipak va ziravorlar”, “Qovun sayli”, “Hunarmandlar kuni”, “Buxoro shaxri kuni” festivallari va “Mahoratli pazandalar” ko‘rik-tanlovlari o‘tkazishning aniq kunlari belgilanib, amalga oshirildi.

Shahar va tumanlarda har yili 12 ta turli xildagi madaniy tadbirlar va festivallar o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

2020 yilning 10-11 dekabr kunlari Buxoro shahrida “I Xalqaro yoshlar turizm forumi” bo‘lib o‘tdi va ushbu forumda 100 nafarga yaqin viloyatlardan va 40 nafar (Fransiya, Singapur, Rossiya, Moldaviya, Germaniya, Nigeriya) xorijlik (onlayn) delegatlar ishtirok etishdi. Forum doirasida Buxoro viloyati turizm elchilari tayinlandi hamda ularga elchilik guvohnomasi va ko‘krak nishonlari taqdim etildi.

Buxoroda o'zlashtirilgan yangi turizm yo'nalishlari⁵⁶

Turizm yo'nalishlari	Hududlar
Eko turizm	Jayron Qoraqir Og'itma
Gastronomik turizm	Milliy taomlar Shirinliklar
Agroturizm	Romitan tumani Buxoro tumani G'ijduvon tumani Vobkent tumani
Etno turizm	Hunarmandlar Mehmon uylari
Madaniy turizm	Teatrlashgan tomoshalar
Plyaj	Quy-mozor To'dako'l

Buxoroning yangilangan turistik xaritasi ishlab chiqilib, 30,0 ming nusxada chop etildi. 2019 yil 17 aprel kuni Fransiyaning Ryuey-Mal'mezon shahrida Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) haykali ochildi.

Shuningdek, Buxoro viloyati bo'ylab 2021 yilda turizmning alohida turlarini rivojlantirish maqsadida 50 ta turistik mashrutlarni o'z ichiga olgan manzilli dastur ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, Buxoro davlatining universiteti bilan Fransiya davlatining "VATEL" Mehmonxona va turizm biznesi maktabi hamkorligida turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Mehmonxona va turoperatorlar uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha 78 ta tadbirkorlik subyektlariga 1222,8 mln.so'm soliq imtiyozlari berilib, 27 ta turizm sohasi subyektlariga jami 1645

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasining turizm va sport vazirligi Buxoro viloyati bo'yicha boshqarmasi hisobot ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

mln.so'm, shundan 24 ta mehmonxonaga 1 mlrd 604 mln.so'm hamda 3 ta turoperatorga 41 mln.so'm maqsadli ssudalar ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 sentyabrdagi 794-sonli "2019-2023 yillarda Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵⁷gi qarorida berilgan topshiriqlar asosida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2019 yilning 31 oktyabr kuni Turkiyaning "Atlas Global Airlines" aviakompaniyasi Airbus-321 samolyoti "Istanbul-Buxoro" yo'nalishida ilk charter reysi amalga oshirildi.

Mamlakatimizda Respublikamiz Prezidenti tomonidan ichki tashqi va tashqi turizmni yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha imtiyozlarni joriy qilindi. O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish xarajatlari bir qismini respublika budjetidan qaytarish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq, 2021 yil 1 martdan 2022 yil Uyungacha quyidagi subsidiyalar joriy etiladi⁵⁸:

- Mahalliy aviaqatnovlarda aviachipta narxining 25 foizi miqdorida, turoperatorlar orqali xarid qilingan temir yo'l chiptalari narxi 15 foizga pasaytiriladi, umumiy chegirma summasi 40 foizni tashkil etadi;
- O'zbekiston fuqarolari va O'zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun tashkil etilgan turlar yuzasidan transport chiptalari narxining 15 foizi hamda mehmonxona xizmatlari narxining 10 foizi miqdorida.
- Yashovchilarning har bir yashagan kuni uchun joylashtirish vositalaridan undiriladigan turistik (mehmonxona) yig'im miqdori bazaviy hisoblash miqdori 0,4 foizini tashkil etadi⁵⁹.

Shu munosabat bilan birga, 2019 yilning 20 mart kuni boshlab Rossiyaning "SIBIR" S7 aviakompaniyasi Buxoro xalqaro aeroportidan haftaning har chorshanba kuni Novosibirsk-Buxoro- Novosibirsk yo'nalishi bo'yicha muntazam aviaqatnovlarni yo'lga qo'ydi.

⁵⁷ <https://lex.uz/docs/-4525528>

⁵⁸ <https://lex.uz/docs/-5315060>

⁵⁹ <https://lex.uz/docs/-5315060>